

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba-yoshlari  
o‘rtasida “Biz Korrupsiyaga qarshimiz”  
mavzusidagi insholar tanlovi  
Nizomi**

1. Mazkur tanlov O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladi.

2. Mazkur nizom talaba yoshlar o‘rtasida “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida tanlovini tashkil etish tartibini belgilaydi.

**I. Umumiy qoidalar:**

3. Tanlovda universitet talaba-yoshlar va magistrantlar ishtirok etadi.

4. Tanlovni tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

5. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, ishtirokchilar soni chegaralanmagan.

**II. Tanlovni o‘tkazishning maqsadi va vazifalari**

6. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovi universitet talaba yoshlarini korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda korrrupsiyaga qarshi kurash jarayonlarida faol ishtirok etishlarini ta’minlash maqsadida hamda talaba yoshlarni bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun o‘tkaziladi.

7. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:

Yoshlarni kelajakda korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda yosh avlod orasida korrupsiyani oldini olishni taminlash;

Yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’todli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

Yosh avlodni yetuk, yuksak ma’naviyatli, inteliktual salohiyatli va ota-onasiga, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

**III. Tanlovda ishtirok etish va o‘tkazish:**

8. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlov universitetdagি barcha talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladi.

9. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovi 2023-yil 5-dekabr kuni o‘tkaziladi.

#### **IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

11. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida ishtirokchilar 12-varaqli daftarga mavzu doirasida insho tayyorlashadi.

12. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida yozilgan inshoning mazmuni sifati, motivatsion salohiyatga ega ekanligi, mavzuga ta’luqliligi, yozilgan inshoda imlo xatolar yo‘qligi hamda yozuv sifati;

13. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida muallif(lar)ning hamda fakultetning nomi va guruh raqami to‘liq bo‘lishi kerak.

14. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida taqdim etilgan materiallar tuzilgan tashkiliy qo‘mita tomonidan baholanadi.

#### **V. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

15. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida, g‘oliblari tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlov tugaganidan so‘ng 3 kun muddatda saralanadi.

16. Tanlov g‘oliblari talabalarini rag‘batlantirish jamg‘armasi tomonidan taqdirlanadi;

- Birinchi o‘rin- 1 000 000 (bir million) so‘m
- Ikkinci o‘rin- 800 000 (sakkiz yuz ming) so‘m
- Uchinchi o‘rin- 500 000 (besh yuz ming) so‘m beriladi.

#### **VI. Yakuniy qoidalar**

17. Tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xaratjatlar universitet va homiylik mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi.